

MUSIQIY TA'LIM ESTETIK TARBIYA TAYANCHI

Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Farg'ona davlat universiteti, Vokal va cholg'u ijrochiligi, kafedrası o'qituvchisi

Mail: nigoramansurova19@gmail.com, nigora.mansurova@internet.ru

Annotatsiya:

Mazkur maqolada o'quvchi yoshlarni musiqiy fanlarni o'qitish orqali musiqiy estetik tarbiyalash borasida bir qator vazifalar va metodlarni ko'rsatib o'tilgan. Musiqiy estetik tarbiya borasida mamlakatimiz va dunyo olimlarining o'rganilgan ishlaridan iqtiboslar keltirilgan hamda turli tavsiyalar berib o'tilgan.

Tayanch so'z va iboralar: Musiqiy estetik tarbiya, musiqiy ta'lim, musiqiy tarbiya, emotsiya, san'at va madaniyat, milliy qadryatlar, pedagogika, psixologiya, estetika, badiiy did, tarbiyalash.

Аннотация:

В данной статье показан ряд задач и методов музыкально-эстетического воспитания студентического молодежи путем обучения музыкальным наукам. Приведены цитаты из исследованных работ ученых нашей страны и мира по музыкально-эстетическому воспитанию и даны различные рекомендации.

Ключевые слова и выражения: Музыкально-эстетическое воспитание, музыкальное образование, музыкальное воспитание, эмоция, искусство и культура, национальные ценности, педагогика, психология, эстетика, художественный вкус, воспитание.

Annotation:

This article shows a number of tasks and methods of musical aesthetic education of young students by teaching musical sciences. Quotations from the researched works of scientists of our country and the world regarding Musical aesthetic education were given and various recommendations were given.

Keywords and phrases: Musical aesthetic education, musical education, emotion, art and culture, national values, pedagogy, psychology, aesthetics, artistic taste, upbringing.

Hozirgi kelajak avlodni tarbiyalashda san'at muhim o'rin tutadi. San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g'amxo'rlik qilar ekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan uni o'z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak. Ma'naviy-axloqiy mukammallik, vijdonlilik, or-nomuslilik, yaqinlariga g'amxo'r bo'lish va shu kabi insoniy tuyg'ular o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Ularning asosida tarbiya yotadi. Yosh avlodni tarbiyalash va kamol toptirishda tarbiyaning bir qator vositalari qatorida musiqa alohida o'rin tutadi. Shu sababli musiqa estetik tarbiya tarmog'ining ajralmas qismi sanaladi. Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga etkazish borasida cheksiz

imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga xurmati baland bo'ladi, degan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoev[1,344].

Musiqqa inson his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg'ulariga faol ta'sir etadi. Shu o'rinda B.Asafevning «...musiqqa – bu ham san'at, ham fan, ham til, ham o'yin» – degan so'zlarini eslash maqsadga muvofiqdir[2,24].

Musiqiy-estetik tarbiya sohasi bo'yicha respublikamizda bir qator olimlar – Sh. Janaydarov, F.Jo'raev, Q.Mamirov, M.Nabieva, X.Nurmatov, Z.Rahimova, D.Ro'zieva, R.Qodirov, A.Hasanov, shaxsning estetik madaniyatini san'at vositalari orqali shakllantirish bo'yicha rossiyalik faylasuflar – Yu.Borev, A.Burov, N.Leyzerov, A.Losev, M.Kagan, V.Kanikovskiy, psixologlardan L.S.Vigotskiy, S.Rubinshteyn, P.Yakobson va boshqalar, pedagogika yo'nalishi bo'yicha B.Lixachev, A.Makarenko, V.Suxomlinskiy, S.T.Shatskiyning ilmiy-tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Ularning ilmiy-pedagogik faoliyatlarida estetik tarbiyaning shartlari va pedagogik asoslari, badiiy didni shakllantirishni obrazli qabul qilish, darslarda va maktabdan tashqari ta'limda badiiy-estetik vositalar asosida o'quvchilarning qiziqishini hamda faolliklarini oshirish muammolari o'rganib chiqilgan[3,31].

Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak. Chunki musiqqa insonga bevosita va kuchli emotsional ta'sir etuvchi vositadir. Insonning hissiy kechinmalari bilan bog'liq voqea va hodisalar aksariyat hollarda musiqqa bilan hamohang tarzda kechadi.

Musiqqa yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra musiqani idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan estetik tarbiyasi vazifalari bilan bog'liq umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Ma'lumki, bunday vazifalar yoshlarni musiqqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, badiiy musiqqa nisbatan estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, musiqiy didni shakllantirish, qisqasi o'quvchi-yoshlarning badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirish kerak[4,244].

Har qanday pedagogik kasbi murakkab va serqirra jarayondir, shuning uchun bu kasb qaysi sohaga tegishli bo'lmasin, musiqqa fanida ham o'qituvchi oldiga ko'pgina talablarni qo'yadi. Zamonaviy pedagogika ta'lim tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo'lgan musiqqa rahbarining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat.

Musiqaning ta'sirchanligini, uning mohiyatini to'liqligicha yoshlar ongiga etkazish pedagogikaning eng qiyin muammolaridan biridir.

Musiqqa rahbari musiqqa mashg'ulotida o'quvchi-yoshlarda quyidagi fazilatlarni shakllantirishi lozim: do'stlik, vatanparvarlik, sadoqat, mehr-shavqat, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va hokazo.

O'quvchi-yoshlarda yuqorida sanab o'tilgan fazilatlarni shakllantirish uchun musiqiy rahbar bir qator vazifalarni bajarishi kerak:

- 1) Musiqani sevish va tushunishga o'rgatish;
- 2) Badiiy va estetik didlarni shakllantirish;
- 3) Musiqiy qobiliyatni rivojlantirish;
- 4) Musiqqa savodi, musiqqa tarixi, musiqqa adabiyoti, qo'shiq kuylash kabi musiqiy bilimlarini hamda tushunchalarni kengaytirish[5,41].

Musiqiy ta'lim jarayonida o'quvchilarda musiqqa san'atiga nisbatan qiziqish va havasning ortib borishi, musiqqa mashg'ulotlari asosida ularda hissiyot, idrok tarbiyasining o'sib borishi, qo'shiqlarni xushohang

kuylash, musiqani ishtiyoq bilan tinglash, asarlarni tahlil qilish orqali musiqadagi xushsozlik, xushovozlik, ya'ni go'zallikni sezadi. Shuni ta'kidlash joizki, musiqiy ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchi-yoshlarimizning nafosat, didlarini badiiy asarlar orqali shakllantirishdir.

Musiqqa ta'limini rivojlantirishda o'g'il-qizlarning fikri, dunyoqarashi, ularning o'z qarashlaridan kelib chiqib yondoshilsa, ko'proq maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, pedagoglar musiqqa markazini jihozlashda, undan joy olgan barcha jihozlarning imkon qadar yorqin, tabiiy ranglarda bo'lishi, bola e'tiborini tortishi, shuningdek yoshlikdan bolada go'zallikka intilish va muhabbat uyg'otishi, badiiy va estetik didni shakllantirib va taraqqiy ettirib borishiga xizmat qilishiga e'tiborlarini qaratishlari lozim. Bolani o'rab turgan barcha narsa-xonani jihozidan tortib to musiqqa rahbari va tarbiyachining tashqi ko'rinishigacha bolani tarbiyalashini doimo yodda tutish lozim.

Musiqqa rahbari nafaqat o'z predmetini, balki falsafa, estetika, psixologiya, pedagogikani yaxshi bilishi va o'z ish faoliyati davomida qo'llay olishi shart.

Musiqqa mashg'ulotlari yoshlarga o'z milliy musiqiy tarixlari, musiqaning elementar nazariyasi, jahon musiqqa san'ati namoyondalarining ijodi haqida tushunchalar berish, ularda musiqiy madaniyatni, odobni va nafosatni tarbiyalashda asos bo'ladi.

Musiqqa mashg'ulotlari xoh u qo'shiq kuylash bo'lsin, xoh tinglash bo'lsin, xoh nazariy bilimlar bo'lsin – yosh avlodni axloqiy poklik, ma'naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan har tomonlama etuk shaxs qilib shakllantirishga asos solar ekan.

Musiqqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy-g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr Al-Farobiy musiqaning shaxs kamoloti shakllanishiga ijobiy ta'sirini quyidagicha bayon etadi: "Bu fan shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol etmaganlarni kamolotga etkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir" [6,161].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, musiqqa mashg'ulotlari orqali musiqqa rahbari yoshlarda yuksak ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatni, milliy g'urur, vatanparvarlik tarbiyasini, nafosat va badiiy didni o'stirishga, tafakkurlarini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxtdir. – Toshkent: «O'zbekiston», 2018. – B. 344.
2. Asafev B.V. Музыкальная форма как процесс. – L.: Gosud. muz. izd., 1973. – S. 24.
3. Karimova D.A., Xonazarova R. O'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashda «Musiqqa madaniyati» fani oldida turgan dolzarb masalalar. Zamonaviy ta'lim. 2018, 7. – B. 31.
4. Soipova D. Musiqqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2009. – B. 5. – 224 b.
5. Ualiev G.I., Rejemetova N.I. Mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi. – Toshkent, 2018. – B. 41.
6. Uroкова O. Abu Nasr al Farobiyning estetik dunyoqarashining o'ziga xos paradigmasi. :fvbnz df byyjdwbzkhf – J,otcndj b byyjdwbbs – Society and innovations Special Issue – 2 (2021). – B. 161-165.